

TASVIRIY SAN'AT XONASINI TASHKIL ETISH QOIDALARI

*Andijon davlat pedagogika instituti Tasviriy san'at va muhandislik
grafikasi yo'nalishi talabasi*

Sotvoldiyeva Marjona Javlon qizi

sotvoldievamarjona@icloud.com

Annotatsiya: Ushbu maqola umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat boshlayotgan yosh pedagoglar uchun amaliy qo'llanma sifatida yaratilgan bo'lib, unda tasviriy san'at xonasini zamonaviy talablarga muvofiq jihozlash va tartibga keltirish masalalari atroflicha yoritilgan. Maqolada xonaning yoritilishi, o'quvchilar uchun qulay ijodiy muhit yaratish, asbob-anjomlarni to'g'ri joylashtirish hamda estetik tarbiya vositalaridan samarali foydalanish yo'llari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, san'at xonasi, jihozlash, tartibga keltirish, natyurmort, yorug'lik, kompozitsiya, rang uyg'unligi, ijodiy muhit, o'quvchi faoliyati, estetik tarbiya, san'at ta'limi, rassomlik, ijodkorlik, o'quv muhiti, molbert, asbob-anjomlar, yoritish, o'simliklar, go'zallik, dars samaradorligi, san'at maktabi, ilhom, tozalik, estetik did.

Annotation: This article serves as a practical guide for young teachers starting their careers in general secondary schools. It provides a detailed explanation of how to properly equip and organize an art classroom in accordance with modern educational standards. The article discusses aspects such as classroom lighting, creating a comfortable creative environment for students, arranging art materials efficiently, and effectively utilizing aesthetic education tools to enhance teaching outcomes.

Keywords: fine arts, art classroom, equipment, organization, still life, lighting, composition, color harmony, creative environment, student activity, aesthetic education, art teaching, painting, creativity, learning environment, easel, art supplies, illumination, plants, beauty, lesson efficiency, art school, inspiration, cleanliness, aesthetic taste.

Аннотация: Данная статья является практическим пособием для молодых педагогов, начинающих свою деятельность в общеобразовательных школах. В ней подробно рассматриваются вопросы правильного оснащения и организации кабинета изобразительного искусства в соответствии с современными требованиями. Особое внимание уделено освещению, созданию комфортной творческой среды для учащихся, правильному размещению художественных материалов и эффективному использованию средств эстетического воспитания.

Ключевые слова: изобразительное искусство, кабинет искусства, оснащение, организация, натюрморт, освещение, композиция, цветовая гармония, творческая среда, деятельность учащихся, эстетическое воспитание, художественное обучение, живопись, креативность, учебная среда, мольберт, художественные принадлежности, освещённость, растения, красота, эффективность урока, художественная школа, вдохновение, чистота, эстетический вкус.

Kirish

Tasviriy san'at insonning estetik didini, ijodiy tafakkurini va go'zallikka bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi eng muhim fanlardan biridir. Ushbu fan samarali o'qitilishi uchun dars o'tiladigan xona tasviriy san'at xonasi to'g'ri jihozlangan, tartibli va qulay bo'lishi zarur. Xonaning yorug'ligi, shamollatilishi, mebellarning joylashuvi, asbob-anjomlarning tozaligi hamda natyurmortlarni to'g'ri joylashtirish bularning barchasi o'quvchi va o'qituvchining ijodiy faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun tasviriy san'at xonasini tashkil

etish san'at darslarining sifatini oshirish, o'quvchilarni mustaqil ijodga yo'naltirishda muhim ahamiyatga ega.

Ma'lum bir honani tasviriy san'at honasiga keltirish uchun quyidagi bosqichlardan o'tiladi. Avvalo xonaning tanlashda yorug'lik qay darajada honamizga tushib turishi ko'rib chiqiladi. Xonamiz qorong'u va judayam quyoshga qaragan bo'lmasligi kerak! Chunki ikkila holatda ham ko'zimiz tez toliqib qolishligi mumkin. Shuning uchun o'rtacha yoruqlikdagi honani tanlaganimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Xonani o'zimiz uchun qulay sharoitda qilib olishimiz kerak, agar ushbu xonamiz sinflar uchun bo'lsa sinfda dars o'tish uchun qulay qilib olish lozim. Rassom ustahonasi qilmoqchi bo'lsak, agar oynali hona bo'lsa shimoldan yoki shimol sharqdan tushadigon tabiiy yorug'lik yaxshi. Stol yoki molbert bo'lishi lozim albatta. Xonaning markaziga yaqin lekin devor tomonga ham yaqin joyga joylashtiriladi. Harakat qilishimizga oson bo'lishi lozim, orqa tomonga turib chizgan rasmimizi korish uchun. Ma'lumki rasm uzoqdan ko'rilganda ancha hatolari kamchiliklari ko'rinadi. Bu anjom yorug'likga qarab lekin to'g'ridan to'ri emas, biroz qiyalatib joylashtiriladi (soya tushmasligi uchun) soya tushib qolsa rasmni chizishimizga halaqit beradi. Qulay kreslo yokida stol-orqasi to'g'ri balandlikga stolga mos bo'lishi kerak. U molbert bilan bir chiziqli turmasin, biroz yon tomonda bo'lsin. Yaqinimizda stol ustida o'ng tarafda bo'yoqlarimiz, chotkalarimiz, palitra, suv idishi – o'ng qo'lda bo'ladigon tomonga (agar rassom chap qo'lda ijod qilsa chap tomonga almashtiramiz) joylashtiramiz. Kichik shkaf yokida stend ishlatiladi – bu tugallanmagan ijod na'munalari, qog'oz, karton, bo'yoq zaxiralari uchun ishlatiladi. Juda muhim nasalardan biri shkafimizi quruqligiga ahamiyat berishimiz kerak, qog'ozlarimiz tezda namlikni o'ziga tortib olishi, so'ng ijod na'munamizga shikast yetishligi mumkin. So'ng devorga o'zimiz chizgan bizni hursand qila oladigon, ilhom beradigon rasmlarimizni ilib qo'yishimiz lozim deb oylayman. Kayfiyatimiz yo'qligida unga qarab ilhom olishimiz kerak! Bir tomonini eskizlar uchun qoldiramiz. Yangi chizmoqchi bo'lgan asarlarimizni eskizlarini ilib qo'yamiz. Unga qarab qayeriga yangilik

kiritsam yanada tushunarli bo'ladi va qiziqarli bo'ladi deb fikrlarni yurutamiz. U devorni dam olish o'rindiq qarshisiga joylashtiramiz.

Natyurmortni to'g'ri joylashtirish "Natyurmort tuzish va kompazitsiya qoidalaridan mohirona foydalanilgani yoqimli ko'rinadi" Natyurmort joylashtirishimizdan oldin yorug'likni qay tarafdin tushayotganini aniqlab oldik. Noto'g'ri: yorug'lik ikki tarafdin tushib tursa yoki juda yorug', kuchli yorug'lik bois rassomning ijod namunasi sifatli chiqmasligi mumkin. Soyalar chalkash chiqadi, shakllar aniqligi yoqotiladi. To'g'ri: shuning uchun yorug'lik bir tomonlama tushib turishi maqsadga muvofiq bo'ladi. (Natyurmort)-insonni o'rab turgan borliqni-turli buyumlar, gul va mevalarning ifoda etadi" Endi navbat qo'yiladigon buyumlar va orqa fo'nga qo'yiladigon matolarga keldi. Noto'g'ri: buyumlar bir tomonga og'ib qolgan, markazga zich joylashgan yokida aksincha markazdan haddan tashqari uzoqda joylashtirilgan buyumlar teng bolmagan notog'ri ko'rinishda joylashtirilgan bo'ladi. To'g'ri: buyumlar markaz chizig'i ortganimizda har ikkala tomonga teng taqsimlanishi kerak. Buyumlarning kata kichikligi, baland-pastligi uyg'un bolishi lozim. Noto'g'ri: masofa (perespektiva) buyumlar bir tekisda qoyilgan bo'lishi, orqa-oldi tomon aniqlanmagan bolishi zid. To'g'ri: buyumlarning oldi, o'rta va orqa rejada joylashtirish – chuqurlik beradi. "Asarning buyumlar shakli, materiali, yorug'-soyalari aniq ko'rsatilib berilgan; asar kompazitsiya jihatdan mukammaldir." Noto'g'ri: buyumlarning rangi bir-biriga mos emasligi bir-biriga qarama-qarshi bo'lsa, orqa fon bilan chalkashib ketishi, buyum bilan matoni rangi bir biriga yaqin bo'lib natyurmort bir xil tonga kelib qolishi bu tog'ri emas. Bunga misol qilib qizil matoga qarg pishgan qizil olmani qoysak, mato bilan meva bir biriga yaqin issiq rang bo'lganligi uchun soyalar aniq bilinmaydi. To'g'ri: natyurmortda asosiy rang uyg'unligi bo'lishi zarur. Iliq va suvuq ranglar muvozanatda turishi kerak. Tepadagi qizil matoga endi sariq nokni qoyadigon bolsak endi soya, yorug, reflekslari aniq ko'rinadi. Noto'g'ri: buyumlar mavzuga mos kelmasligi ham bu notog'ri. Bir joyda mavsumlar yoki uslublar ketgan bolishi mumkin: masalan yozgi mevalar ichida qishda kiyiladigon bosh kiyim (shyapa) bolishi noto'g'ri mavzu ketishidir.

Tasviriyy san'at honasini jihozlash

1. Sinf honananing yorug'ligi va shamollatib turish uchun qulayliklari bo'lishi lozim. Eng yaxshi variant tepada aytganimizdek-shimol yoki shumol sharqdan tushadigon tabiiy yorug'likdir. Bu chizgan ijod na'munamizi yumshoq va barqaror chiqishiga ko'makchi hisoblanadi. Agar sun'iy yorug'likdan ishlatilinsa oq rangli chiroqlardan foydalaniladi.

2. Parta va stollarning joylashuvi. Rasm chizish uchun maxsus burchakli parta yoki molbertlar qo'yiladi. O'quvchilarning yuziga chap tomondan yorug'lik tushib turishi kerak. Agar o'quvchilarni ko'pchiligi chap qo'lda rasm chizsa sun'iy nur joylashuvini eskarisiga almashtiramiz. Qatorlar orasi taxminan 60-70 sm masofada bolishligi kerak. O'quvchi o'rindiqdan turib bemaolol xarakatlanishligi uchun.

3. Asbob- anjomlar. Chotkalar, boyoqlar, suv uchun idishlar, o'chirg'ichlar, palitra, qalam va qog'ozlar uchun mahsus tokcha, shkaf yokida har bir o'quvchi uchun alohida qutilar ajratiladi. O'quvchilar darsdan keyin, narsalarni yig'ishtrib o'zlari uchun ajratilgan mahsus joyga ishlatgan narsalarini tozalab belgilangan joyga joylashtirib ketiladi.

4. natyurmortni joylashtirish ucun xonaning birorta burchagi yokida markazdan joy ajratiladi u joy hamma o'quvchilarga ko'rinib turishligi lozim. Maxsus stolcha yoki podstavka ustiga mato qoyiladi. Buyumlar yorug'lik yon tomondan tushub turishi kerak.Orqa fonda ortiqcha bezaklar bo'lmasligi kerak.Bu diqqatni chalg'itadi. Masalan yoruq ranglardagi matolar, naqsh ko'p bo'lgan matolar va shunga oxshash detallar kiradi.

5. Yorug'lik tartibi. Chapdan va biroz tepada tushub turishi bu ideal holat. Agar elektr chiroq ishlatilsa, 90 sm balandlikda bo'lishi kerak. Juda kuchli nur soyalarni otkir qiladi shuning uchun meyorida yorug'lik qaratilishi kerak.

6. O'qituvchi joyi. O'qituvchi xonaning old qismiga ish stolini joylashtiramiz, bu o'quvchilarning hammasini kuzatib turishlik yo'lini eng osson

yo'llaridan biridir. O'qituvchi oldida doska, namoyish qilish uchun molbert, ko'rgazma doskasi yoki monitor doskasi, proyekt bolishi kerak. Xozigi zamonda ko'rgazmasiz, slaydsiz darsga kelgan o'qituvchi qurol aslahasiz jangga kelgan askardek gap.

7. Devoriy bezak va o'quv xonasi ko'rgazmalari. Devorga ranglarni ajratib ko'rgazma qilib qo'yiladi ya'ni issiq va sovuq ranglar. Ikki va undan ortiq rangni aralashtirib undan qanaqa ranglar chiqishligi na'muna sifatida ko'rsatib qo'yiladi. O'bekistondagi mashxur rassomlarni asarlari va ular haqida tariflar berib o'tilib ketiladi. O'quvchilarni rag'batlash maqsadida eng na'munali o'quvchilarni ishlarini olib devorga ilib qo'yiladi. Har oyda yangilanib turadigon burchak hosil qilinadi. U yerda a'lo boholar olayotgan o'quvchilar rasmi yokida ijod na'munalari ilib qo'yiladi.

8. Tozalik va xavfsizlik qoidalari. Albatta tozalik bor joyda unumli ish bo'ladi. Rasm chizishdan so'ng sto'llar artiladi, bo'yoq idishlar yuviladi. Molbertlar o'z belgilangan joyiga qo'yiladi. Pol silliq, sirpanmaydigan bo'lishi zarur. Dars tamom bo'lgandan so'ng chiroqlar o'chirilib, derazalar yopiladi.

9. Rang va kayfiyat. Xona devorlari ko'z tolmaydigan bo'lishi kerak. Och rangda oq, neytral ranglar och kulrang va boshqalar. Bu ranglar bo'yoqlarning haqiqiy tusini buzmaydi.

10. O'simliklarning xonadagi o'rni. Sinf xonalarida gul o'simliklari bo'lishi o'quvchilarga boshqacha kayfiyat berishi mumkin. Asosiy maqsadi honadagi havoni tozalaydi va ozidan kislorod ishlab chiqaradi. O'simliklar, san'at asarlari ijidiy muhitni kuchaytiradi. Natija O'tkazilgan tahlil va amaliy kuzatuvlarga ko'ra, to'g'ri tashkil etilgan tasviriy san'at xonasi o'quvchilarni charchatmaydigan yoruqlikka, qulay o'rindiq va molbert joylashuviga, asbob-anjomlarning tartibli saqlanishiga hamda estetik muhitning mavjudligiga ega bo'lishi kerak.

Natyurmortlarni to'g'ri joylashtirish orqali o'quvchilar kompozitsiya, rang uyg'unligi va perspektiva qoidalarini yanada yaxshi o'zlashtiradi. Shuningdek,



o'simliklar bilan bezatilgan, devorlarida o'quvchilar ishlari ilib qo'yilgan xona ularda ilhom, mas'uliyat va ijodiy kayfiyat uyg'otadi. Xulosa Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'at xonasini jihozlash va tartibga keltirish faqat qulaylik yaratish emas, balki ijodiy muhitni shakllantirish jarayonidir. To'g'ri yoritilgan, ozoda va tartibli xona o'quvchilarda nafaqat rasm chizish ko'nikmalarini, balki estetik didni ham rivojlantiradi. Har bir detaldagi uyg'unlik — yorug'lik, rang, buyumlar joylashuvi va tozalik — san'atning o'ziga xos ruhini aks ettiradi. Shu bois, tasviriy san'at xonasi o'quvchilarning ijodiy dunyoqarashini kengaytiradigan, san'atga mehr uyg'otadigan muhit sifatida tashkil etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'. Abdurahmonov – Baqqol natyurmort tahlili, Ilmiy axborotnoma, sah. 132 133.
2. Tasviriy san'at o'quv matni – Kanonik ta'riflar, sah. 18.
3. O'zbekiston Respublikasi san'at ta'limi metodik qo'llanmalari.
4. A. Ikromjonov – Rangtasvir asoslari, Toshkent, 2018.
5. M. Abdullayev – Rassomlik asoslari va maktabda tasviriy san'at darslarini tashkil etish, Toshkent, 2007.